

"O'zkiyosanoat" AJ sanoat yarmarkasida muvaffaqiyatli ishtirok etdi

// 14 December 2024 yil

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-sanoat-yarmarkasida-muvaffaqiyatli-ishtirok>



Avval xabar berganimizdek, poytaxtimizdagi "O'zekspomarkaz" milliy ko'rgazmalar zalida Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi bo'lib o'tdi.

Unda "O'zkiyosanoat" AJ va uning tarmoq korxonlarida ishlab chiqarilgan hamda mavjud quvvatlarni kengaytirish hisobiga o'zlashtirilgan mahsulotlar namoyish etildi.

Yarmarkaning ko'rgazma qismi bilan birga, tadbir B2B va B2G formatidagi muzokaralar uchun ham maydon bo'lib xizmat qildi. Bu yerda ishtirokchilar qator shartnomalar tuzish imkoniyatiga ega bo'ldilar.



Ushbu kelishuvlar yirik tarmoqlararo loyihalardan tortib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilishga qaratilgan xususiy investitsiya tashabbuslarigacha bo'lgan yo'nalishlarni qamrab oladi.

Xususan, "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari tomonidan elektron kooperatsiya portali orqali ijrodagi shartnomalar 767,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



Bu loyihalar sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan bo'lib, mamlakatda kimyo sanoatini barqaror rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.



Uzkiyosanoat

ГЛУБОКОЕ ОЧИЩЕНИЕ
Гигиеническая чистота и свежесть
Для белья и стиральной машины

ГЛУБОКОЕ ОЧИЩЕНИЕ
Гигиеническая чистота и свежесть
Для белья и стиральной машины

uzkiyosanoat

uzkiyosanoat.uz

(+99878) 140-74-26

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati